

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./CDJF6877>  
UDC: 349:614.7(045)(575.1)

## AHOLI UCHUN TOZA SUV VA SANITARIYA MAVJUDLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY JIHATLARI

**Uzakova Go'zal Sharipovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ekologiya huquqi kafedrasini mudiri,  
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
ORCID 0000-0001-9357-3200  
e-mail: g.uzakova@tsul.uz

**Anisimov Aleksey Pavlovich,**  
Don davlat texnika universiteti Jinoyat huquqi va  
ommaviy huquqiy fanlar kafedrasini professori,  
yuridik fanlar doktori  
ORCID 0000-0003-3988-2066  
e-mail: anisimovap@mail.ru

**Annotatsiya.** Maqolada BMT Barqaror rivojlanish dasturida belgilangan asosiy maqsadlardan biri bo'lgan aholi uchun toza suv va sanitariya mavjudligini ta'minlashning huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Mualliflar sohaga oid asosiy ekologik muammolarni statistik ma'lumotlar asosida o'rgangan hamda ularning yechimiga doir asosiy xalqaro hujjatlarni keltirgan. Shuningdek, "ichimlik suvi", "toza ichimlik suvi", "sifatli ichimlik suvi", "zarur miqdordagi ichimlik suvi" kabi tushunchalarga yuridik tavsif bergan. O'zbekiston Respublikasining suv qonunchiligi holati, unda ifodalangan suv muhofaza zonalari rejimi, suv iste'moli va suvdan foydalanish huquqlari, yerosti suvlaridan foydalanishning amaldagi huquqiy rejimi tahlil qilingan. Mazkur maqola tadqiqot sifatida mavzuga oid xalqaro hujjatlar, milliy qonun hujjatlari, ilmiy-huquqiy, nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Shuningdek, sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Maqola mavzuga oid asosiy holatlarni o'rganishdan boshlangan, ilmiy-nazariy tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud muammolarni hal qilish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ba'zi takliflarni ilgari surish bilan yakunlangan.

**Kalit so'zlar:** suv resurslari, toza ichimlik suvi, ekologik me'yorlar, sanitariya normalari, yashash huquqi, qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi.

### ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОСТУПНОСТИ К ЧИСТОЙ ВОДЕ И САНИТАРИИ ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ

**Узакова Гузал Шариповна,**  
доктор юридических наук (DSc), доцент,  
заведующая кафедрой «Экологическое право»  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Анисимов Алексей Павлович,**  
доктор юридических наук, профессор  
кафедры «Уголовное право и публично-правовые дисциплины»  
Донского государственного технического университета

**Аннотация.** В статье анализируются правовые аспекты обеспечения доступности чистой воды и санитарии для населения – одна из основных целей, поставленных в программе устойчивого развития ООН. Автор изучил основные экологические проблемы отрасли на основе статистических данных и привел основные международные документы, касающиеся их решения. Также представлена юридическая характеристика таких понятий, как «питьевая вода», «чистая питьевая вода», «качественная питьевая вода», «необходимое количество питьевой воды». Проанализировано состояние водного законодательства Республики Узбекистан, выраженных в нем режима водоохраных зон, прав водопотребления и водопользования, режима пользования подземными водами. Данная статья как доктринальное исследование содержит анализ международных документов, национальных законодательных актов, научно-правовых, теоретических источников по данной теме. В статье исследуются научные концепции в этой области, взгляды, выводы и мнения ученых-теоретиков. Статья началась с изучения основных положений темы, продолжилась развитием научно-теоретических концепций, а завершилась выдвижением нескольких предложений по совершенствованию законодательства в целях решения существующих проблем.

**Ключевые слова:** водные ресурсы, чистая питьевая вода, экологические нормы, санитарные нормы, право на жизнь, право на благоприятную окружающую среду.

## LEGAL ASPECTS OF ENSURING THE AVAILABILITY OF CLEAN WATER AND SANITATION TO THE PUBLIC

**Guzal Uzakova Sharipovna,**  
Head of the Environmental Law Department,  
Tashkent State University of Law,  
Associate Professor, Doctor of Science (DSc) in Law

**Anisimov Aleksey Pavlovich,**  
Professor of the Department of Criminal Law and Public Law Disciplines,  
Don State Technical University,  
Doctor of Law

**Abstract.** The article analyzes the legal aspects of ensuring the availability of clean water and sanitation for the population, which is one of the main goals set by the UN Sustainable Development Program. The author studied the main environmental problems related to the sector based on statistical data and cited the main international documents related to their solution. He also gave a legal description of concepts such as “drinking water”, “clean drinking water”, “quality drinking water”, and “necessary amount of drinking water”. The state of the water legislation of the Republic of Uzbekistan, the regime of water protection zones, the rights of water consumption and water use, and the current legal regime of groundwater use are analyzed. This article, as doctrinal research, includes the analysis of international documents, national legal documents, scientific-legal, theoretical sources. In this article, the scientific concepts of the field, views, conclusions and opinions of theoretical scientists are studied. The article started with the study of the main cases related to the topic, continued with the development of scientific and theoretical concepts, and ended with putting some suggestions forward for improving the legislation in order to solve the existing problems.

**Keywords:** water resources, clean drinking water, ecological standards, sanitary standards, right to life, right to have a comfortable environment.

## Kirish

Suv – tabiatning eng noyob, nodir hamda bebaho boyliklardan biri. U butun tirik jonzot – inson, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq uchun hayot, yashash manbaidir. Suv tabiiy atrof-muhit muvozanatini saqlash, uni mo'tadil holatda ushlab turuvchi asosiy omil rolini o'ynaydi. Shuningdek, suv xalq xo'jaligi, sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

YNEP ma'lumotiga ko'ra, planetamizdagi daryolarning yarmi jiddiy ifloslangan. Endilikda Yer shari aholisining 40 foizi ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Yana 30 yildan so'ng toza ichimlik suvi tanqis resurs bo'lib qolishi mumkin. Aholining yarmidan ko'pi suv muammo bo'lgan hududlarda yashamoqda. Hozirgi vaqtda Yevropada 120 mln aholi toza ichimlik suvidan foydalana olmaydi. Bunga asosan suvdan isrofgarchilik bilan foydalanganlik sabab bo'lmoqda [1]. Bugungi kunda dunyo miqyosida deyarli 1 mlrd aholi xavfsiz ichimlik suviga ega emas. 2030-yilga kelib, ularning soni 2,7 mlrd kishiga yetishi taxmin qilinyapti. Hozirgi vaqtda MAGATE ma'lumotiga binoan, har yili 5 mln kishi ifloslangan va sifatsiz suv iste'mol qilishga majbur bo'lmoqda.

"BMT – suv resurslari" mexanizmi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti bosh direktori Jilber Ungboning ta'kidlashicha, "Dunyo 2030-yilga borib suv va kanalizatsiya bo'yicha Olтинchi Barqaror rivojlanish maqsadiga erishishda rejadan ancha ortda qolishi mumkin. Milliardlab odamlar yuqumli kasalliklarga chalinish xavfi ostida, ayniqsa, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tabiiy ofatlar davri yaqinlashyapti" [2].

Jahon Meteorologiya Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan "Global suv resurslari holati"ga oid hisobotda 2050-yilga kelib, Yerning besh milliarddan ziyod aholisi suv tanqisligini boshdan kechiradi. Mazkur tashkilotning iqlim, ekologik va ijtimoiy o'zgarishlarning Yerning suv resurslariga ta'sirini tahlil qilish natijalarida chuchuk suv

zaxiralarining global hajmi, shuningdek, yer kriosferasining (qor va muz) zaif holati haqida ma'lumotlar e'lon qilindi. Hisobotda qayd etilishicha, o'tgan yili dunyoning katta qismida odatdagidan quruqroq ob-havo hukm surgan. Darhaqiqat, so'nggi yillarda iqlim o'zgarishining oqibatlari suv resurslari orqali tobora ko'proq sezilmoqda. Qurg'oqchilik, ekstremal toshqinlar, mavsumiy yog'ingarchilik va muzliklarning tez erishiga guvoh bo'lyapmiz. Bunday o'zgarishlar jahon iqtisodiyoti, ekotizimlar va kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalariga keskin ta'sir ko'rsatmoqda [3]. Chuchuk suv zaxiralarining kamayishi insonning yashash huquqi, toza chuchuk suvga bo'lgan huquqining ta'minlanishi-ga so'zsiz salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## Material va metodlar

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi Yer yuzidagi ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Mazkur jarayon suv resurslarining holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Ayniqsa, dunyo aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tan olish kerakki, ushbu muammoning yechimi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ular sirasiga mintaq va hududlarning tabiiy-iqlim sharoiti, davlatlarning iqtisodiy holati va hukumatlarning siyosiy irodasi kabilar kiradi. Ushbu maqolada aholi uchun toza suv va sanitariyaning mavjudligini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy masalalar o'rganilgan bo'lib, unda mazkur masalaning xalqaro va milliy darajadagi ahamiyati tadqiq etilgan. Muallif xalqaro hujjatlar, milliy qonun hujjatlari va mavjud ilmiy-nazariy qarashlar asosida o'z yondashuvini shakllantirgan. Maqolada empirik, statistik, mantiqiylik kabi metodlardan samarali foydalanilgan. Dastlab xalqaro tashkilotlarning suv resurslari bilan bog'liq statistik ma'lumotlari keltirilgan. So'ngra insonning yashash huquqini ta'minlash uning toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Muallif O'zbekiston Respublika-

sidagi suv bilan bog'liq vaziyatni davlat ekologik siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida tavsiflagan. Mamlakatimizning mavzuga oid qonun hujjatlari umumiy asoslarda qisqa shaklda tahlil qilinib, ishning xulosa qismida ularni takomillashtirish yuzasidan ba'zi takliflar berilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Bugungi kunda insonning yashash huquqidek tabiiy huquqini ta'minlashda uning suv resurslari, ayniqsa, toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish jahon hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan bo'lib qolmoqda [4]. Aholining toza ichimlik suviga zarur miqdorda ega bo'lish huquqi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-va 25-moddalarida o'z ifodasini topgan. Unda har qaysi inson yashash huquqiga egaligi nazarda tutilgan. Insonning zarur miqdorda toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi uning yashash huquqini ta'minlovchi muhim omillardan biridir [5].

Insonning yashash huquqi va uni ta'minlovchi shartlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqlar 1976-yil 3-yanvardan boshlab kuchga kirgan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ham mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, unda insonning quyidagi huquqlari – har qaysi odamning o'zi va oilasi uchun, jumladan, yetarlicha ovqatlanish, kiyim-kechak, turar joy va turmush sharoitini uzluksiz yaxshilashni qo'shgan holda yetarlicha turmush darajasiga ega bo'lish huquqi (1-modda, 1-qism); ochlikdan xalos bo'lish huquqi (11-modda, 2-qism); har qaysi insonning jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajasiga bo'lgan huquqi (12-modda) o'z ifodasini topgan.

Aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlarga insonni o'rab turgan atrof tabiiy muhit bo'yicha Stokholm deklaratsiyasi (1972), Tabiat to'g'risidagi butunjahon xartiyasi (1982), Bioxilma-xillik to'g'risidagi konvensiya (1992)ni kiritish mumkin. Ushbu xalqaro

hujjatlarda insonning zarur miqdordagi toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi to'g'risidagi hujjatlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi shartligi ko'rsatilgan. “Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida”gi Helsinki konvensiyasi (1992-yil 17-mart), ana shu konvensiyaga suv va salomatlik muammolari bo'yicha protokol bugungi kunda insonning toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini ta'minlash borasida xalqaro tashkilotlarning fundamental hujjati hisoblanadi. Mazkur konvensiyaning asosiy maqsadi “insonning zarur miqdordagi toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi”ni ta'minlashdan iborat [6].

Ta'kidlash joizki, 2023-yil 22–24 mart kunlari BMTning Nyu York shahridagi Bosh qarorgohida Tojikiston Respublikasi va Niderlandiya Qirolligi raisligida bo'lib o'tadigan “BMT Suv konferensiyasi – 2023”ga katta umidlar bog'lanmoqda. Mazkur anjuman 1977-yilda Argentinaning Mardel-Plata shahrida bo'lib o'tgan oliy darajadagi suv konferensiyasidan keyin birinchi marta o'tkazilayotgani e'tiborga molik. “Suv barqaror rivojlanish uchun – 2018–2028” – BMT xalqaro harakat o'n yilligi doirasida o'tadigan tadbir insoniyatning zaruriy ehtiyojlari bo'lmish suv va kanalizatsiyalar tanqisligi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalar va boshqa yechimini topmagan muammolarga barham berishga qaratilgan bo'lib, mazkur tadbir natijasida dunyo yetakchilari suv va kanalizatsiya ishlarini qayta faollashtirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmalariga olishi kutilmoqda.

Ta'kidlash joizki, suv resurslari taqchilligi yanada oshgan hozirgi sharoitda suv zaxiralaridan tabiatning umumiy qonuniyatlari-dan kelib chiqqan holda tejamliligi, oqilona, samarali, ilm-fan tavsiyalari asosida foydalanish va uning muhofazasini to'g'ri ta'minlash bugungi kunning birinchi darajali vazifalaridan biridir [7]. Bu vazifani amalga oshirishda huquqiy munosabatlarning roli juda katta.



U suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish vazifasini o'taydi, undan samarali foydalanish va turli xil g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilish choralarini belgilaydi. Suvdan foydalanish va uni muhofaza etishga qaratilgan qonunlar suv boyliklariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, asrash, qo'riqlash, tejash tartiblarini o'rnatadi va ushbu tartiblarga rioya qilish choralarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining davlat ekologik siyosatida suv resurslaridan tejab-tergab foydalanish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash markaziy masalalardan bo'lib qolmoqda [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilning 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2023-yildagi ustuvor yo'nalishlari belgilab berilib, unda to'rtinchi yo'nalish sifatida ekologiya, ayniqsa, suv masalalari global muammoga aylanib borayotgani qayd etildi [9]. "Biz nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarni ham o'ylashimiz shart. Shu bois Konstitutsiyamizda tabiiy resurslar, jumladan, suv havzalari va yerosti zaxiralarini muhofaza qilish bo'yicha talablarni kuchaytirishimiz zarur. Bilasiz, mamlakatimiz so'nggi 3 yilda qurg'oqchilikni boshdan kechirdi. Buning ta'siri, ayniqsa, Amudaryoning quyi havzasidagi hududlarimizda yaqqol sezildi. Shu o'rinda Amudaryo o'zanida yangi kanal qurilishi bo'yicha qo'shni Afg'onistonning muvaqqat hukumati hamda jahon hamjamiyati bilan birga xalqaro me'yorlar asosida va mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini inobatga olish yuzasidan amaliy muloqotlar olib borish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv qo'shnilarimiz tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishiga ishonamiz. Umuman so'nggi 15 yilda yog'ingarchilik 25 foizga qisqardi. Yozda o'ta issiq kunlar davomiyligi ortgani oldimizda hali katta sinovlar borligidan dalolat beradi... Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo'lgani kabi

O'zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo'lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho'llanish, suv yetishmasligi, qurg'oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash shular jumlasidandir. Tabiatimizni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish kelgusi yilda har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerak..."

Darhaqiqat, suv resurslari insonning hayoti uchun zarur tiriklik manbai, jamiyat hayotida aholining turli ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy tabiiy resurs sifatida ahamiyati cheksizdir. O'zbekiston aholisining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojining 60 foizi yerosti suvlari orqali qondiriladi. Markaziy Osiyo suv hajmi cheklangan mintaqalardan biri sifatida asosiy suv manbayi Amudaryo, Sirdaryo va boshqa daryo, suv havzalaridan iboratdir [10]. Bugungi suvga bo'lgan talab va ehtiyojning oshishi esa ulardan ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan ravishda oqilona foydalanish hamda muhofaza etish choralarini ko'rishni talab etadi. Bunda huquqning o'rni beqiyos bo'lib, mamlakatimiz suv qonunchiligi tabiiy resurslar bilan bog'liq huquq tizimida o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi [11].

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi 837-XII son qonunida suvdan foydalanish va suv iste'moli tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, suv iste'moli deganda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv obyektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish tushuniladi. Suvdan foydalanish deganda esa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish tushuniladi. Suvdan foydalanish, o'z navbatida, suv obyektidan suv olish usuli, suvlar va suv obyektlarining holatiga ta'sir etilishiga qarab umumiy va maxsus foydalanish turlariga bo'linadi. Suv iste'moli

ham maqsadli foydalanilishiga ko'ra, ichimlik, kommunal-maishiy, davolash, kurort, rekreatsiya, baliqchilik xo'jaligi, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi suv iste'moliga turlariga bo'linadi. Suv obyektidan olinadigan suvning miqdoriga qarab suv iste'moli umumiy va maxsus suv iste'moliga bo'linaadi. Yuridik shaxs bo'lgan suv iste'molchilari umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida suv iste'molchilari uyushmasi tashkil etib, unga birlashishlari mumkin. Shuningdek, amaldagi suv qonunchiligi suvdan foydalanishning turli maqsadlarini belgilaydi. Aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi foydalanish va iste'mol qilish maqsadiga qarab: a) suvdan aholi iste'moli va ichimlik ehtiyoji uchun foydalanish; b) maishiy ehtiyojni qondirish uchun foydalanish; d) davolash, kurort va sog'lomlashtirish maqsadida foydalanish turlariga bo'linaadi. Shuningdek, aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini markazlashgan va markazlashmagan suvdan foydalanish turlariga ham bo'lish mumkin.

Ta'kidlash joizki, aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi haqida gap borgan-da, "ichimlik suvi", "toza ichimlik suvi", "sifatli ichimlik suvi", "zarur miqdordagi ichimlik suvi" kabi tushunchalarga aniqlik kiritish zarur. A. Jumanovning fikriga ko'ra, ichimlik suvi deganda inson tomonidan iste'mol qilish, ovqat tayyorlash, shaxsiy gigiyena, maishiy yoki shunga o'xshash ijtimoiy maqsadlar uchun foydalaniladigan suv tushuniladi. Toza ichimlik suvi deganda, inson tomonidan iste'mol qilish, ovqat tayyorlash, shaxsiy gigiyena, ijtimoiy-maishiy yoki shunga o'xshash ijtimoiy maqsadlar uchun sanitariya-gigiyena me'yorlari, ekologik talablarga javob beradigan foydalanish uchun yetkazib berilgan suv nazarda tutiladi. Sifatli ichimlik suvi deganda tarkibida inson salomatligi uchun zararli aralashmalar bo'lmagan suv tushuniladi. U rangsiz, hidsiz hamda iste'mol uchun xavfsiz bo'lishi talab etiladi. Sifatli ichimlik suvi nafaqat bakteriologik darajada toza va inson

organizmi uchun zararli moddalarsiz bo'lishi, balki foydali minerallarga ham ega bo'lishi zarur [12].

Ta'kidlash joizki, ekologiya huquqining markaziy masalasi bo'lgan – fuqarolarning sog'lom, qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi uning toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi hamda sanitariyaga bo'lgan imkoniyati bilan uzviy bog'liqdir [13]. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash haqida gap borgan-da, uning "zarur miqdori" muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish joiz. Ya'ni zarur miqdordagi ichimlik suvi deganda har bir insonning suvga bo'lgan iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli darajadagi va uzluksiz ta'minlashga xizmat qiladigan suv hajmi tushuniladi. Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida har bir inson tomonidan foydalaniladigan suvning kunlik o'rtacha miqdori turlichadir. Suv tanqis bo'lgan davlatlarda bu ko'rsatkich minimal miqdor hisoblangan 20 litrga ham yetmaydi. Aslida, toza ichimlik suvi faqat iste'mol uchun emas, balki insonning kundalik ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan boshqa turli xo'jalik maqsadlarida foydalanish uchun ham yetarli bo'lishi zarur.

Toza ichimlik suvi – odamlarning o'z hayot va sog'lig'ini saqlab turish, iste'mol va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ma'lum haq evaziga yetkazib beriladigan hamda davlat tomonidan o'rnatilgan sanitariya-gigiyena va ekologik me'yorlarga javob beradigan tabiiy resursdir. Demak, toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni qondirish to'g'ridan-to'g'ri sanitariya-gigiyena normalariga rioya qilish hamda ekologik me'yorlarning ta'minlanishiga bog'liq.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 97-moddasiga ko'ra, barcha suv obyektlari aholi sog'lig'iga zarar yetkazishi, shuningdek, baliq zaxiralarining kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning

gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak.

Suv obyektlari atrofida suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo'yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalari barpo etiladi. Mazkur zonalarining huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan suv obyektining holati va hajmiga ko'ra belgilanib, bunday hududlarda xo'jalik faoliyatining maxsus rejimi o'rnatiladi.

Suv obyektlarining muhofaza zonalari O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda 981-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risida"gi nizom talablari asosida tashkil etiladi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda yerosti suvlarini chuchuk suv zaxirasi sifatida iste'mol qilish ommaviy tus olmoqda. Yerosti suvlari odatda mineral resurs bo'lganligi bois bunday suvlardan foydalanish huquqi yerosti boyliklaridan foydalanish sohasidagi qonun hujjatlariga ko'ra, maxsus ruxsatnomalar asosida vujudga keladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-yanvardagi 9-son qarori bilan "Yerosti suvlariga quduqlarni burg'ilash uchun ruxsatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" tasdiqlangan. Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda qishloqlarimizda tobora ommaviy tus olib borayotgan quduqlardan foydalanish jarayonini fuqarolarning tabiatdan (suv resurslaridan) umumiy va maxsus foydalanish huquqi sifatida tasniflash mumkin. Jismoniy shaxslarga chuqurligi 25 (yigirma besh) metrgacha bo'lgan yerosti suvlariga quduqlarni burg'ilash va sutkasiga ko'pi bilan 5 (besh) kub metr hajmdagi yerosti suvlarini

shaxsiy ehtiyojlarga yakka tartibda olish uchun ruxsatnoma talab qilinmaydi.

Ammo qishloq aholi punktlarida yerosti suvlaridan quduqlar qazib foydalanishning yana bir muhim ekologik talabi borki, mazkur talab qishloq aholi punktlari tarkibidagi qishloq xo'jalik yerlarida agrokimyoviy vositalarni qo'llash jarayonida belgilanadigan me'yorlarga qat'iy rioya qilishdan iboratdir. Qishloq xo'jalik yerlarida mineral o'g'itlar, pestitsidlar kabi kimyoviy vositalardan belgilangan me'yorlardan ortiq darajada foydalanish nafaqat yerlar, balki yerosti suvlarining ham ifloslanishiga sabab bo'ladi. Tarixan zaharli moddalarni ekologik jihatdan oqilona boshqarishni huquqiy tartibga solish suv, tuproq va atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida sanoat qonunchiligi doirasida ishlab chiqilgan [14]. Zero, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-aprelda 362-II son qonunining 14-15-moddalarida yuridik shaxslarning chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquq va majburiyatlari, 17-moddada chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlash, 18-moddada chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida normalashtirish, 22-moddada esa chiqindilarni saqlash va zararsizlantirishga doir talablar belgilangan. Mazkur normalar yerosti suvlarining muhofazasini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

A. Jumanovning fikriga ko'ra [14], aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini ta'minlash bugungi kunda to'la darajada ekologik talablarga javob beradi deb bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu kamchiliklar quyidagi sabablar natijasida yuzaga kelgan: a) suv sifatining O'zDSt 950:2011 "Ichimlik suvi. Gigiyenik talablar va sifat nazorati" talablariga javob bermasligi; b) eski vodoprovod stansiyalarida texnologiyalarning ta'minlanmaganligi va buning oqibatida tabiiy suvlarning talab darajasida tozalanmasligi; d) vodoprovod tarmoqlarining avariya holati natijasida suvning isrof bo'lishi, ikkilamchi

mikroblar bilan ifloslanishi; e) suv tortish tizimida eski texnologik sxemalar quvvatining yetishmasligi (yoki tozalovchi qurilmalarning umuman mavjud emasligi) natijasida suv obyektlariga me'yorsiz tozalanagan va tozalanmagan oqar suvlarning kelib tushishi hamda ifloslanishi; f) qattiq va suyuq chiqindilarni oqizadigan yuqori texnologik omborxona va poligonlarning mavjud emasligi va h.k.

Ta'kidlash joizki, aholi uchun toza suv va sanitariyaning mavjudligini ta'minlashda davlat boshqaruvini samarali tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etib, bunda davlat suv kadastrini yuritish, monitoringini amalga oshirish, ekologik normativlar va boshqa standartlarni tasdiqlash, ekologik nazorat va ekspertizani amalga oshirish kabilar ustuvor vazifalarni tashkil etadi [16]. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar doirasida mazkur yo'nalishlarni ham takomillashtirish, sohada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish ko'zda tutilmoqda.

### **Xulosa**

2012-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Barqaror rivojlantirish konsepsiyasi" butun insoniyat taraqqiyoti va farovonligi uchun muhim bo'lgan yo'nalishlarni qamrab oladi hamda ularni asosiy maqsadlar sifatida belgilaydi. Mazkur maqsadlar BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015–2030-yillar davomida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Barqaror rivojlantirish maqsadlari 17 ta global maqsad hamda ular bilan bog'liq 169 ta vazifani o'z ichiga olib, ular ichida oltinchi maqsad sifatida belgilangan toza suv va sanitariyani ta'minlash masalasi insoniyatning ajralmas uzviy huquqi bo'lgan yashash, uning toza va qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlashga qaratilgandir [17].

Bugungi kunda butun dunyoda suv resurslari taqchilligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq salbiy jarayonlarni boshidan kechirayotgan dunyo aholisi uchun mazkur jarayon yanada keskin tus

olmoqda. Tarixan dunyo aholisi suv resurslaridan turli maqsadlarda foydalanib keladi. Ular ichida birlamchi ahamiyatga ega bo'lgani – bu aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir. Dunyo aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi turli mintaqalarda hududning tabiiy suv oqimlari bilan ta'minlanganlik darajasi, sanitariya normalarining mavjudligi va ularga rioya etish holati, chuchuk zuv zaxiralarini saqlash vazifasining samarali tashkil etilishi kabi bir qancha omillarga bog'liq bo'lib, mazkur jarayonni ichki va tashqi imkoniyatlardan kelib chiqib samarali boshqarish davlatlar ekologik siyosatining tarkibiy qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining davlat ekologik siyosatida ham suv resurslarini samarali boshqarish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, sanitariya talablariga rioya qilinishiga erishish vazifasi markaziy vazifalardan bo'lib qolmoqda [18]. Mazkur yo'nalishda bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik sohalaridagi vazifalari qatorida amalga oshirib kelinmoqda.

Insonning yashash huquqini tom ma'noda zarur miqdor va sifatidagi toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqini ta'minlamasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Demak, insonning toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi uning mutlaq va ajralmas huquqi hisoblanadi. Toza ichimlik suvining tavsifi uning sifati, miqdori, sanitariya-gigiyena holati, ekologik me'yori, uzluksizligi kabi omillar bilan belgilanadi. Aholining toza ichimlik suviga ega bo'lish huquqi undan nafaqat ichimlik, balki boshqa kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham foydalanishini anglatadi. Shu sababli amaldagi qonunchilikda har bir fuqaro uchun kundalik shaxsiy ehtiyojlari darajasida zarur bo'lgan toza ichimlik suvi miqdori belgilanishi zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, so'nggi yillarda aholi o'rtasida yerosti suvlaridan foydalanish omalashganini e'tiborga olgan holda amaldagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi



Qonunga yerosti suvlaridan foydalanishga oid ekologik me'yorlar haqidagi norma kiritilishi zarur. Aholi uchun toza suv va sanitariyaning mavjudligini ta'minlash masalasi aholi soni muntazam o'sib borayotgan va yangi uy-joylar uzluksiz barpo etilayotgan hozirgi sharoitda dolzarb ahamiyat

kasb etishini inobatga olib, mazkur mavzuga oid sohalararo tadqiqotlarni ko'paytirish lozim. Mazkur xulosaviy fikrlar bugun va kelajak uchun muhim bo'lgan, aholi uchun toza suv va sanitariyaning mavjudligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

## REFERENCES

1. United Nations Environment Programme website. Available at: <https://www.unep.org/>.
2. Xudoyberdiyev B., Mardonov N. Dunyoda suv, kanalizatsiya muammosi va insonlar hayoti [The problem of water, sanitation and human life in the world]. Available at: [https://uza.uz/uz/posts/dunyoda-suv-kanalizatsiya-muammosi-va-insonlar-hayoti\\_443983/](https://uza.uz/uz/posts/dunyoda-suv-kanalizatsiya-muammosi-va-insonlar-hayoti_443983/).
3. The World Meteorological Organization (WMO) website. Available at: <https://public.wmo.int/en/>.
4. Borer B. Environmental Law Dimensions of Human Rights. 2015, pp. 180–196.
5. Rogers D.T. Fundamentals of Environmental Law and Compliance. CRC Press Taylor & France Group, 2023, pp. 377–391.
6. Narzullayev O.X. Xalqaro ekologiya huquqi [International environmental law]. Tashkent, TSUL, 2022, pp. 82–96.
7. Abanina Ye.N. Ekologizatsiya kak protsess dostizheniya ustoychivogo razvitiya [Ecologization as a process of achieving sustainable development]. *Vestnik Saratovskoy gosudarstvennoy yuridicheskoy akademii – Bulletin of the Saratov State Law Academy*, 2018, vol. 3 (122), p. 201.
8. Xolmo'minov J.T. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ekologik xavfsizlikni ta'minlash, agrar va energetika sohasini rivojlantirishga oid konseptual g'oyalarini o'rganish [Study of the conceptual ideas of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, regarding the provision of environmental security, the development of the agriculture and energy sector]. Tashkent, TSUL, 2020, pp. 31–91.
9. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan. 2022, December 20. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/5774/>.
10. Skripnikov N.K. Transgranichnoye vodopol'zovaniye v Tsentral'noy Azii (pravovoy aspekt) [Transboundary water use in Central Asia (legal aspect)]. Tashkent, TSUL, 2004, 102 p.
11. Suv huquqi [Water law]. Team of authors. Tashkent, TSUL, 2011, pp. 67–88.
12. Jumanov A.O. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning ekologik-huquqiy muammolari [Environmental and legal problems of providing the population with clean drinking water]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2019, 49 p.
13. Dupuy P.-M., Viñuales J.E. International environmental law. Graduate Institute of International Studies, Geneva, University of Cambridge, pp. 583–648.
14. Il'yasova M.T., Akimzhanova T. Pravovyye voprosy okhrany okruzhayushchey prirodnoy sredy ot zagryazneniya toksichnymi veshchestvami [Legal issues of environmental protection from pollution by toxic substances]. *Vestnik KazNU – Bulletin of Al-Farabi Kazakh National University*, 2008, no. 8, p. 23.
15. Jumanov A.O. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashning ekologik-huquqiy muammolari [Environmental and legal problems of providing the population with clean drinking water]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2019, 49 p.
16. Ekologiya huquqi [Environmental law]. Ex. ed. J.T. Xolmo'minov. Tashkent, TSUL, 2019, 285 p.
17. Tafsir T.A., Ndiaye M., Wolfrum R. Law of the Sea, Environmental Law and Settlement of Disputes: Liber Amicorum Judge. Liden – Boston, 2007, pp. 1055–1131.
18. Towards a Greener Economy in Uzbekistan. The World Bank Group, 2022, August, p. 90.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 1-SON

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.1.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,  
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 24.02.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 19,30 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 11.

TDYU tipografiyasida chop etildi.